

“ALPOMISH” EPOSI JANUBIY O‘ZBEKISTON VARIANTLARIDA EPIK QAHRAMON SIYMOSINI YARATISH AN‘ANALARINING QIYOSIY TAHLILI

Navbahor Kamolova,

Qarshi innovatsion ta’lim universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya:

Maqolada o‘zbek xalq qahramonlik episi “Alpomish” dostonining Janubiy O‘zbekiston variantlarida epik qahramon badiiy siymosining yaratilishi, bunda an‘ananing o‘rni masalalari ilmiy-nazariy asosda tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: qahramonlik, doston, variant, epik qahramon, an‘ana, dostonchilik maktabi

Ma’lumki, ilmiy adabiyotlarda “Alpomish” dostoni, uning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari, versiya va variantlari borasida nazariy fikrlar bildirib o‘tilgan[1]. Respublikamizda mavjud dostonchilik maktabi baxshilari repertuaridan yozib olingan doston variantlari o‘zaro qiyoslanib, syujet, motiv va epizodlaridagi ba’zi o‘ziga xos tomonlar va farqlar folklorshunos T. Mirzayev tadqiqotida ko‘rsatilgan. Olim dostonning o‘zbek variantlari haqida fikr yuritib quyidagi xulosaga keladi: ”Variantlarning hammasida ham dostonning asosiy syujeti saqlanadi, umumiy g‘oyaviy yo‘nalishi bir xil. Tafovutlar u yoki bu motivning ishlanishi, ayrim epizodlarning qo‘shilishi yoki tushib qolishi, variantning badiiy darajasi bilan belgilanadi. Bu variantlar hajm jihatidan bir xil emas. Ular bir necha yuz misradan tortib, bir necha ming misragacha she’rni o‘z ichiga oladi” [2.31]. Shunday ekan, har bir variant mustaqil ijodiy asar bo‘la oladi. Ta’kidlash joizki, dostonchilik maktablari va baxshilar ijro mahorati borasidagi o‘zaro farqli va o‘xshash tomonlar, epik mahoratning ijro va ijod etilish xususiyatlarini aniqlashda ustoz-shogird variantlarini qiyoslash, ular asosida ma’lum nazariy va ilmiy xulosalarga kelish mumkin. Chunki “Har bir ijro etilgan asar bir matnning varianti emas, balki kengroq she’riy zahiraning imkoniyatidir. Xalq dostonlarining erkin ijro etilishi shuni ko‘rsatmoqdaki, ijrochi, birinchi navbatda, epik bilimlarni saqlovchisidir. Dostonni keng miqyosda bilish uning bir matnini bilganga qaraganda ma’quldir. Chunki baxshi faqatgina bir marotaba ijro qilish imkoniyatiga emas, balki bunday imkoniyatlarning ko‘plab turlari mavjud. Epik bilimning chegaralarida turgan holda baxshi ko‘pgina muqobil harakatlarning birini tanlaydi, qo‘shadi yoki ayrim badiiy parchalarni olib tashlaydi: ularning o‘rnini almashtiradi, fikrni boshqa so‘zlar bilan yuzaga chiqaradi, qayta ijod qilish jarayonida badiiy sinonimiyalarni qo‘llaydi”[3.45]. Ikkinchidan, doston variantlarini o‘zaro qiyoslash asosida baxshining epik an‘ana va mahoratga ijodiy yondashuvi, bunda ustozidan o‘zlashtirgan badiiy matnga hissasi bor yoki yo‘qligi, umuman, bir baxshi repertuaridan yozib olingan variant misolida uning an‘ana va badiha, improvizatsiya usullaridan foydalana olish omillarini tahlil qilish epik repertuar va baxshi ijrochiligining o‘ziga xos ijodiy qirralarini nazariy jihatdan

tahlil qilish imkoniyatini beradi. Shu nuqtai nazardan Qodir baxshi Rahimov tomonidan ijro etilgan variantni tahlil qilish asosida baxshining an'ana va badiha, ijro jarayonining o'ziga xos qirralarini o'zlashtirish mahorati borasida fikr bildirsak.

Ma'lumki, "Alpomish" dostonining Janubiy O'zbekiston variantlari ichida an'anani saqlagan va badiiy jihatdan mukammali Umir shoir Safarov varianti hisoblanadi[4]. Bu borada akademik T. Mirzayev o'zining yuqoridagi monografiyasida ta'kidlab o'tgan. Qodir baxshidan yozib olingan varianti ham o'ziga xos ijro xususiyatiga ega. Garchi doston baxshidan to'liq yozib olinmagan bo'lsa-da, bizgacha yetib kelgan audio ko'rinishdagi variantdagi ba'zi epizodlar tahlil uchun yaxshi imkoniyat yaratadi[5]. Dostonning ikkinchi qismida Alpomishning Boysari boshliq yurtdoshlarini qalmoqlardan qutqarish maqsadida safarga otlaniishi, tutqunlikka tushishi, undan ozod bo'lib, dushmani mag'lub qilishi va ona yurtiga qaytib dushmandan o'ch olish tasvirlari mavjud. Ayniqsa, epik qahramon Alpomishning Boysun yurti tomon kelayotgan tasvirida otasi Boybo'rining Ultontoz boshchiligidagi raqib kuchlar ta'sirida ruhiy ezilishi, bu esa doston strukturasidagi ruhiy ta'sirning dinamik jihatdan doston voqealariga ta'sirini ko'rsatishi badiiy mahorat asosida tasvirlanadi. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, Umir shoir variantida Alpomish oldiga chiqqan tuya enchi Ko'kalcha hisoblanadi hamda Ko'kalcha Alpomish va Boychiborni hidlab, ot oldiga yiqiladi. Qodir baxshi dostonni ustози Umir shoir Safarovdan og'zaki o'rgangan bo'lsa-da, Fozil shoir varianti voqealari tasvirida ijro etgan. Baxshining savodxonligi, qolaversa, Fozil shoir va boshqa variantlarni o'qib o'zlashtirishi natijasida doston voqealariga bir qator o'zgartirishlar kiritgan. Misol uchun Alpomishga peshvoz chiqqan Ko'kalcha emas, Fozil shoir variantidagidek Tarlon biyadir. Bu kabi tasvirlar doston voqealarining keyingi o'rinlarida ham ko'zga tashlanadi. Biz esa doston matnidagi Tarlon biyaning Alpomish bilan diydorlashib, halok bo'lishi, voqeadan xabar topgan Boybo'rining "hala" deb, tuyaning izidan chopib, Alpomish tomon yurib, otning tovushini anglab, murojaati tasvirida ko'rsatilgan epizodga e'tiborni qaratib, Qodir baxshining ijro mahorati borasida to'xtalsak. Otaning ruhiy iztiroblari 32 misralik she'riy parchalarda ijro etilgan. Tasvirda Boybo'ri ezilgan, nochor ko'rinishdagi chol qiyofasida ekanligini sezgan Alpomish o'zini tanitmaslikka harakat qilsa-da, uning "to'xta, bolam, senga bir gapim bor" tarzidagi ifodasi dostonning keyingi voqealari uchun dramatik vaziyatni yuzaga chiqaradi. Chunki epik qahramon Boybo'ri tasvirida Ultontoz va u boshliq hokimiyat egalarining olib borgan azoblari orqali oila a'zolarining qiyin holatga tushganligini his etadi. Baxshi esa ushbu tasvirni Boybo'ri tilidan shunday ijro etadi.

Nomoshomda gulday so'lgan tarzim bor,

Bu dunyodan nomoz, ro'za qarzim bor.

Ot ustida ketayotgan yo'lboshchim

To'xta bolam, ikki og'iz arzim bor, - deya murojaat qilar ekan, otaning farzand sog'inchi, iztirobida qolgan kimsa sifatida gavdalanitirib, tasvirga jonli ifoda bag'ishlaydi. Alpomish har qancha o'zini tanitmaslikka harakat qilsa-da, otasi Boybo'ri tilidan aytilayotgan

quyidagi misralarda bu holat yanada bo‘rtibroq ifodalanadiki, bu esa tinglovchilar auditoriyasiga kuchli ta‘sirini ko‘rsatadi:

Yig‘lay, yig‘lay bo‘g‘inlarim bo‘shaydi,
Mol dunyoing menga zimdan o‘xshaydi,
Yoshimdi qo‘y, suyaklarim qaqshaydi,
Qaydan olding oostingdagi molingdi,
Shu bedoving Boychiborga o‘xshaydi?!

Ijro etilayotgan matnning keyingi tasviri, bevosita Alpomish bilan Boybo‘rining savol-javobi asosidagi dialogi bilan davom etadi. Ikki obraz tilidan aytilayotgan ifoda usuli voqeaga kontrast holatni ko‘rsatsa-da, ammo ayriliqdagi o‘g‘ilning dushman anglamasin tarzidagi qarashi Boybo‘riga yanada kuchli ta‘sir ko‘rsatadi. Epik qahramonning otaga dalda ko‘rinishidagi ijrosida baxshi yanada kuchli ruhiy vaziyatni ifodalaydi:

Yig‘lama bobo baxting kular,
Kashalda ketgan Alponjonning kelar.
Yig‘lab bobo bo‘yingni bo‘shatma,
Kelganida senga orqa bo‘lar.

Baxshi mahorati shundaki, tasvir vositalari –o‘xshatish, sifatlash, jonlantirish va ritorik so‘roq shakllari orqali Boybo‘ri ruhiyatiga xos sifatlardan o‘rinli foydalanadi. Ayniqsa, mubolag‘a yordamida ayriliq motivining Boychibor obrazida ifodalar ekan, hayvonning ham bir-biriga bo‘lgan sog‘inch iztiroblarini jonli tasvirlarda ijro etib boradi. Alpomishning Boychiborga turtki berib, uni yo‘lda davom ettirishga undashi, Boychiborning qahramonga bo‘yso‘nmasdan onasi tomon talpinishi va bu holat Alpomishga ta‘sir qilish epizodlarida juda ishonarli ko‘rsatiladi. Qodir baxshining epik mahoratini tahlil qilish asosida uning voqealarga, qahramonlar ruhiy holati, tabiat tasviri va boshqa ijro bilan bog‘liq holatlarni kuzatish mumkin. Baxshidan yozib olingan ushbu doston varianti garchi to‘liq shaklda bo‘lmasa-da, ammo ijro va badiha, epik an‘anaga individual yondashuv mahorat qirralarini tahlil qilishga imkon beradi. Ikkinchidan, yozib olingan doston variantidagi ayrim epizodlarni tahlil qilish asosida baxshining SHerobod dostonchilik maktabi ijro usullariga o‘zgartirish kiritishi, bu esa ijtimoiy voqelikning baxshi xotirasi va dunyoqarashiga ta‘sir etganligining ilmiy-nazariy asosda qiyoslash imkonini yaratadi. Chunki ustoz Umir shoir variantida ushbu tasvirlar dialogik ko‘rinishda emas, balki qahramon bilan Boybo‘ri o‘rtasidagi uchrashuv individual planda tasvirlanadi. Aytish mumkinki, Qodir baxshi varianti bevosita Fozil shoir ijro etgan variantga yaqin bo‘lib, voqealar ketma-ketligi, qahramonlar ruhiy holati va xatti-harakatidagi o‘xshash epizodlar shuni ko‘rsatadi. Bu esa Janubiy O‘zbekiston dostonchiligiga Samarqand dostonchiligining ta‘sir etishi bilan bog‘liq holat bo‘lib, uni alohida tekshirish ishlarini amalga oshirishni talab qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Qodir baxshi ijro etgan “Alpomish” dostoni variantidagi ba‘zi epizodlarni qiyosiy tahlil qilish asosida uning mahorat qirralari, dostonchilik maktablari va

baxshi individual ijrochiligi, bunda an'ana va badihaning o'rni masalalarini o'rganish muhim tadqiqotlardan hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirzayev T. "Alpomish" dostonining o'zbek variantlari. –Toshkent: Fan, 1968.
2. Mirzayev T. Yuqoridagi manba. –B. 31.
3. Гацак В.М. Эпический певец и его текст // Текстологическое изучение эпоса. – М., 1971. – С.45.
4. Alpomish. Doston. Aytuvchi Umir shoir Safarov. –Toshkent: Akademnashr, 2019.
5. Alpomish. Doston. Aytuvchi Qodir baxshi Rahimov. Audio yozuv. Misollarni ushbu yozuvdan oldik.